

O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI

Jumanazarova Feruza Erkinovna

Toshkent viloyati oqqo'rg'on tumani

43-maktab amaliyotchi psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8002721>

Annotatsiya: ushbu maqolada o'smirlik davrida shaxsining shakllanishini asosiy bosqichlari, yo'l-yo'riqlari, qiyinchiliklardan chiqib keta olish, vaziyatlarga tog'ri baho berish haqida tushuntirilib yoritib o'tilgan.

Kirish so'zlar: dunyoqarash, e'tiqod, printsip, shaxs xususiyatlari, "ideal men", "axloqiy men", "haqiqiy men", tizim, atrof-muhit, ijtimoiy, axloqiy ideallar, qiziqish, qadriyat, individ faoliyati, iltifotsizlik, loqaydlik, beadablik, tajovuzkorlik, jamoa, ehtiyoj, madaniy, ma'naviy.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, printsip, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr xisoblanadi. O'smir ulg'aygan sari unda "ideal men", "axloqiy men" va "haqiqiy men" singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o'zi to'g'risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo'lib qoladi. O'smir o'z faoliyatini muayyan printsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai -nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib topirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy, ahloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofida gilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo'nalishi keskin o'zgaradi.

To'g'ri o'zini-o'zi baholash dastavval individ faoliyati natijalari ta'sirida shakllanadi. Lekin hamma gap shundaki bu natijalarni ta'sirini atrofda gililar baholaydilar. Shuning uchun atrofda gilarning bahosi o'zini-o'zi baholashni belgilab beradi. O'ziga bo'lgan tuyg'u boshqalarning unga bildirgan fikri tufayli shakllanadi va mustahkamlanadi. Agar atrofda gililar ta'lim muassasasi o'quvchisiga xurmat bilan munosabatda bo'lishsa u ham o'zini xaqiqiy xurmatga sazovor deb hisoblay boshlaydi. Agar, aksincha ish qilinsa, o'quvchiga muntazam iltifotsizlik ko'rsatilganda, asosiy etibor uning kamchiliklariga qaratilsa, unda uning o'zi haqida xurmatga sazovor emas degan xulosa chiqarishdan o'zga imkoni qolmaydi. Bunga nisbatan ham turlicha holat ro'y berishi mumkin: loqaydlik, beadablik, tajovuzkorlik va boshqalar.

Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o'zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo'lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog'liq bo'lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o'smir endi o'zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o'zligini aniq anglay boshlaydi, o'z shaxsini ulug'lab, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O'smirlarni o'z shaxslari haqidagi fikrlar ko'prok qiziqtiradi, ular o'zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O'smirlik davrlaridagi muloqot tizimlari bolada bir qancha ijtimoiy-psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi. Me'yoriy xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish o'smirlik davriga to'g'ri keladi.

O'smirlik davridagi nizolar shunisi bilan qiziqki, tolerantlik ko'rinishlari shakllanishning ketma-ketligini inobatga olgan holda o'smirni "kattalarning kattasi" sifatida chiqish mumkin. O'smir katta bo'lib brogan sari uning hayotidagi barcha o'zgarishlar uning uchun yangilik bo'lib, hali o'smir tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmagan bo'ladi. O'zining sabrsizligi, qattiqqo'lligi, qat'iyatligida o'smir kattalardan ancha o'zib ketadi. O'smir o'z olamida yashaydi, uning qadriyatlari tizimi yaxshilik va yomonlik dualizmiga asoslangan bo'lib, aynan ularni atrof-olamga ko'chirishga intiladi, kattalar esa ularning ruhiy mavjudlik tomonlarini kuchaytirish o'rniga, ularni ko'proq ijtimoiylashtirishga harakat qiladilar, buning natijasida rezonans yuzaga keladi, ya'ni ota-onasining negativ atmosferasi ta'sirida o'smirida, negativizm kuchayib qoladi.

O'smirlik davrida o'qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan boshlab to 9-sinfgata o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og'zaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha" o'zgaradi. Yozma nutq xam yaxshilangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar. O'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bog'liq holatida amalga oshiriladi. 5-6 sinlardagi o'quvchilar ogzaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladalar,

O'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof-olamdagi bog'lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta'sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. U'nda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi.

Mudrik a.v. ota-onalar bilan almashtirib bo'lmaydigan tengdoshlar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoj bolalarda juda erta paydo bo'lishini va yoshi bilan ortib borishini ta'kidlaydi. O'smirlarning xulq-atvori, mudrik a.v. o'zining o'ziga xosligi bilan jamoaviy guruh deb hisoblaydi. U o'smirlarning bu o'ziga xos xatti-harakatlarini quyidagicha izohlaydi: birinchidan, tengdoshlar bilan muloqot qilish juda muhimdir. Axborot kanali, undan o'smirlar u yoki bu sabablarga ko'ra kattalar ularga aytmaydigan ko'p narsalarni o'rganadilar. Ikkinchidan, bu mexanik munosabatlarning o'ziga xos turi. Guruh o'yinlari va birgalikdagi faoliyatning boshqa turlari ijtimoiy o'zaro munosabatlarning zaruriy ko'nikmalarini, jamoaviy intizomga bo'ysunish va shu bilan birga o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Uchinchidan, bu hissiy aloqaning o'ziga xos turi. Guruhga mansublikni anglash, hamjihatlik, o'rtoqlik o'zaro yordami o'smirga farovonlik, barqarorlik tuyg'usini beradi. O'smirlik davrining boshida bolalar turli xil tajribalarni boshdan kechiradilar. Do'stlar bilan muloqot: ba'zi bolalar uchun u allaqachon hayotda katta o'rin egallaydi, boshqalar uchun u faqat maktab bilan cheklangan. Vaqt o'tishi bilan o'rtoqlar bilan muloqot tobora ko'proq o'qitish va maktabdan tashqariga chiqadi, yangi qiziqishlar, faoliyatlar, sevimli mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi va o'smirlar uchun mustaqil va juda muhim hayot sohasiga aylanadi. O'rtoqlar bilan muloqot shunchalik jozibali va muhim bo'lib qoladiki, ta'lim orqaga suriladi, ota-onalar bilan muloqot qilish imkoniyati endi unchalik jozibali ko'rinmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'g'il va qiz bolalarning kommunikativ xususiyatlari va muloqot uslubi mutlaqo bir xil emas.

Kishi dunyoga kelgandan so'ng, avvalo, uning ota-onasi, farzandini unib-o'sishini, kamol topishini istaydi. Kelajakda esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shu yurtning biror koriga nafi tegadigan barkamol avlod sifatida ulg'ayadi. Hozirgi vaqtga kelib dunyo aholisining soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tug'ilgan bolalarning aksariyatida esa turli xil nuqsonlar kuzatilmoqda. Ushbu holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan bir qancha omillar mavjud. Jumladan, ekologik holatning yomonlashuvi, turmush qurishda yo'l qo'yilgan xatolar va sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelmoqda. Lekin hozirgi vaqtga kelib davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ushbu turdagi shaxslarga ham keng yo'l ochdi. Maxsus maktablar hamda inklyuziv ta'limning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayoni davlat standartlariga javob bera oladigan darajada shakllanib bormoqda.

Odam tabiati jixatidan faol mavjudotdir. u ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhim ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatidir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishga qaratilgan bo'ladi. anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan tabiiy yoki, madaniy, yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar olamda har turli faollik tug'diradi. ma'lumki, inson faoliyati jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi.

Xulosa: shaxs shakllanishining eng dolzarb davri bu o'smirlik davri ekan. Chunki, kasb tanlashda, adaptatsiya jarayonida, shaxslararo munosabatlarda ancha qiyinchiliklarni boshdan o'tkazilar ekan. Negaki, atrof-muhit ham shaxsga ta'sir etib, uning shakllanishida bir qancha shart-sharoitlar, muammolar tug'dirar ekan. Bunday vaziyatda har bir odam, o'z-o'zini anglashi, tengdoshlariga, ota-onasiga to'g'ri munosabatda bo'lishi, qiyinchiliklarda sabr qilib yengib o'tishi kerak. Ko'proq shaxsiy rivojlanishiga diqqat e'tiborini qaratishi lozim hisoblanadi. Bu davrda hamma qiyinchilik bilan o'tadi, qiynaladi degani emas va bundan qo'rqish ham kerak emas. Chunki, ayrim insonlarda bu davr sezilmasdan yengil o'tib ketar ekan. Hattoki, qanday o'tganini ham bilishga ulgurishmaydi. Ammo, shuni unutmasligimiz kerakki, biz har doim o'tish davrida bo'lamiz, chunki xarakterimiz o'zgaruvchidir.

References:

1. Cyberleninka.ru
2. Toshpo'latov Abdulaziz quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarida "ommaviy madaniyatga" qarshi kurashishning didaktik vositalari. Central asian journal of education and innovation, 2(4), 27-29. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7869831>
3. Openscience.uz
4. <http://genderi.org/osmirlik-davrida-psixik-rivojlanish-xususiyatlari.html?page=2>
5. <https://minikar.ru/uz/dengi/psihicheskoe-razvitie-podrostkov-psihicheskie-osobennosti/>
6. Toshpo'latov, A., & Jo'raboyev, J. (2023). Jamiyatimizda ko'rishda nuqsoniga ega bolalarning psixologik rivojlanishi. Евразийский журнал социальных наук, философии и

культуры, 3(4 part 2), 133–136.
academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/13276
Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7869885>

Извлечено от [https://in-](https://in-academy.uz/index.php/si)



INNOVATIVE
ACADEMY